

## **Ingliz va o'zbek tiliga xos lisoniy birliklarda qo'llanilgan o'xshatishlarning lingvomadaniy xususiyatlari**

**Jumayeva Barno Uralovna**  
**JDPI o'qituvchisi**

O'xshatishlar turli xalqlar madaniyatini yaqqol namoyon qilib beruvchi vositalardan biri hisoblanadi. Ularda ma'lum davrda yashagan ajdodlar kechinmalari, tasavvurlari, milliy va madaniy an'analari muhrlangan bo'ladi.

Tildagi o'xshatishlarni tadqiq etgan tilshunoslarning aksariyati turg'un o'xshatishlarning idiomalarga yaqin turishini yoki idioma maqomida bo'lishini, ular ko'p asrlar mobaynida kishilar nutqida qo'llanish natijasi sifatida turg'unlashib, so'zlovchilar ongida muayyan modellar shaklida mustahkamlanib qolishini, o'xshatish etalonining, ya'ni o'xshatish asosidagi obrazning muayyan belgi-predmet bilan muntazam va qat'iy bog'liq bo'lishini ta'kidlaydi<sup>1</sup>.

Ingliz va o'zbek tillaridagi mavjud o'xshatishlarni qiyosiy tahlil qilganda, o'xshatish etaloni sifatida ko'pincha hayvon yoki jonivorlarni bildiruvchi so'zlardan foydalanilganligini ko'rish mumkin. Masalan, o'zbek tilida “qo'yday yuvosh”, “musichaday beozor” o'xshatish etalonlari mavjud bo'lib, bu o'xshatishlar orqali o'zbek mentalitetiga xos jihat, ya'ni qadimdan qo'yning yuvosh hayvon, musichaning beozor, zararsiz qush ekanligi ifodalanmoqda. Ingliz tilida esa beozorlik timsoli sifatida ko'pincha kabutar tasvirlanadi: “As harmless as a dove”.

Ingliz va o'zbek tillarida sinonimlik xosil qiladigan quyidagi o'xshatishlarni ham xuddi shunday qiyosiy tahlil qilish mumkin:

“As hungry as a bear” iborasi o'zbek tilidagi “Bo'riday och” o'xshatish etaloniga teng keladi. “Och” sozining bo'ri bilan birga ishlatilishi o'zbek lingvokulturologiyasiga xos bo'lib, ozbek xalq ertaklaridagi och bo'ri ko'z oldimizga keladi.

Jumladan, mif, ertak, doston va badiiy asar qahramonlari ishtirok etgan muayyan o'xshatishlar mavjud bolib, ular orqali o'sha xalq milliy madaniyatini chuqur anglab yetish mumkin. Masalan, o'zbek tilida “baquvvat, pahlavon, gavnali, juda ham kuchli, bahodir” ma'nosida ishlatiladigan “*Alpomishday*” o'xshatish etaloni ingliz tilidagi “jasur va botir” ma'nosida qo'llanuvchi “*as brave as Robin Hood*” o'xshatish birligi bilan sinonimlik xosil qiladi.

Ingliz va o'zbek tillarida uchraydigan o'xshatishlar orasida leksik component tuzilmasi jihatidan bir xil yoki turli xil bo'lgan turlarni uchratish mumkin. Masalan, ingliz tilidagi “As red as a cherry” iborasida ishlatilayotgan cherry (gilos) so'zi o'zbek lingvokulturologiyasiga ham xos bo'lib, qiz bolaning lablarini tasvirlashda foydalaniladi.

Shuningdek, ingliz tilidagi “as sly as a fox” iborasi o'zbek tilidagi “tulkiday ayyor” o'xshatishiga sinonim bo'ladi. Bu sinonimlikda ham leksik component

---

<sup>1</sup> Некрасова Н. Сравнения общеязыкового типа в аспекте сопоставительного анализа художественных идиолектов // Лингвистика и поэтика. –М.: Наука, 1979. –С. 225; Лебедева Л. Устойчивые сравнения русского языка. –Краснодар: Кубинский ГУ, 2003. –С. 3; Хакимянов Ф. О слове устойчивых сравнений татарского языка // Российская тюркология. –Москва-Казань, 2010. -№2. –С. 80.

tuzilmasi jihatidan bir xillikni kuzatish mumkin. Bundan tashqari, o'zbek tilida "semirmoq", "ko'p ovqat yemoq"ni anglatgan *cho'chqaday* o'xshatish etaloni ingliz tilida ham cho'chqaga muqoyasa qilinadi: "As fat as a pig".

Masalan,: *The woman in the supermarket was as fat as a pig.*

Ammo, ingliz tilidagi "as white as a sheet" iborasidagi sheet (qog'oz) leksemasi o'zbek tilidagi o'xshatish etaloni bo'lib xizmat qilmaydi. O'zbek tilida bu rang ko'proq qorga muqoyasa qilinadi: "Qorday oq".

Shuningdek, ingliz tilida uchraydigan "as clean as a (new) pin" iborasi o'zbek tilida "chinniday toza" o'xshatishiga teng keladi. Ingliz tilida tozalik belgisi sifatida yangi to'g'nag'ich madaniy vosita sifatida xizmat qilmoqda. O'zbek tilida esa bu sifat chinni buyumga muqoyasa qilinmoqda.

O'zbek tilida "qo'yday yuvosh" o'xshatish etaloniga ma'no jihatidan sinonim bo'lgan ingliz tilidagi "as gentle as a lamb" o'xshatishi leksik komponent tuzilmasiga ko'ra farq qiladi. Ya'ni, o'zbek xalq madaniyatida yuvoshlik "qo'y"ga qiyoslansa, ingliz tilida bunday sifat "qo'zichoq" bilan bog'liq tarzda qo'llaniladi.

Masalan,: *The girl is as gentle as a lamb when she is with her little sister.*

Bundan tashqari, o'zbek tilida ijobiy ta'riflanayotgan oppoq tishlar "qor"ga emas, balki qimmatbaho "sadaf"ga qiyos etiladi. M., *Yo'q, Xor shaharga ketgan, - dedi yigit kulimsirab, sadafdek oppoq tishlarini ko'rsatib – O'X, 15*"<sup>2</sup>.

O'zbek she'riyatida *tunday* o'xshatish etalonidan sochning qoraligini ifodalash uchun keng foydalaniladi: M.:

Kel endi tashlama, qo'yma

Bu tunning qo'ynida yolg'iz.

Hijronni boshimga yoyma,

Ey *tundek* sochi qora qiz (Cho'lpon. Tun).

Mazkur o'xshatishni shotlandiyalik shoir Robert Byornsnning "John Anderson" she'rida uchratish mumkin. B.Xolbekova "John Anderson" she'rining rus va qozoq tillaridagi tarjimalarini quyidagicha tahlil qiladi:

John Anderson my jo, John,

When we were first acquent,

Your locks were like the raven,

Your bonie brow was brent.

Mazmuni: "Qadrdonim, mening do'stinam Jon Anderson, birinchi bor sen bilan ko'rishganimizda, sochlaring zog'(qarg'a) rangiga o'xshar (ya'ni qop-qora edi, yosh eding), barq urib do'ng peshonangni bezab turardi...". Ingliz tilida agar soch qarg'aga o'xshatilsa, ingliz o'quvchisi faqat qarg'a(zog')ning o'zini emas, balki uning rangini tushunadi.<sup>3</sup> Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, shotland lingvomadaniyatida sochning qoraligi zog'(qarg'a)ga qiyoslanadi. Binobarin, Shotlandiya shimoliy o'lka hisoblanib, u yerda yilning deyarli barcha faslida zog'larni uchratish mumkin.

O'zbek lingvomadaniyati uchun me'yoriy hisoblangan o'xshatish etalonlari ingliz tilida so'zlashuvchi boshqa xalqlarning lisoniy mental an'analari uchun begona bo'lishi mumkin.

<sup>2</sup> Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. Дарслик. –Тошкент: Фан, 2005. –Б. 219-220.

<sup>3</sup> Сирожиддинов Ш., Одилова Г. Бадий таржима асослари. –Тошкент: Мумтоз сўз, 2011. –Б. 80.

Masalan, o'zbek lingvomadaniyatida ayollarning yuzini oyga, olmaga, ba'zan kulchaga o'xshatishadi. Inglizlarda esa olchaga, atirgulga (as red as a cherry /rose/) qiyoslash me'yor hol hisoblanadi. Bundan tashqari, "cherry", "rose" leksemalari narsa-buyumlarni ham qizilligini tasvirlashda ko'p qo'llaniladigan o'xshatish etaloni hisoblanadi.

Masalan: *The car was as red as a cherry after its new paint job.*

*The morning sunrise was as red as a rose.*

Shuningdek, baquvvat kishilarni o'zbeklar filga, inglizlar otga va ho'kizga muqoyasa qilishadi: *filday baquvvat, as strong as a horse/an ox*. Yoki, o'zbeklar tinimsiz ishlaydigan, mehnat qiladigan kishilarni chumoliga (*chumoliday*), inglizlar esa ariga va itga o'xshatishadi (*as busy as a bee, working like a dog*).

Masalan: *The man was as strong as an ox and easily helped us to move the sofa. She always works like a dog.*

Umuman, o'xshatishlar har bir xalqning lingvomadaniy boyligi bo'lib, ular milliy dunyoqarash, dunyodagi hodisalarni milliy tasavvurlarga ko'ra taqqoslash, qiyoslash natijasida shakllanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. SH. Rahmatullaev O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi. 1978. -6-7 b.
2. F. Jumaeva Polisemem leksemalar doirasidagi sinonim va antonim semalar tadqiqi. Monografiya. Toshkent. "Qaqnus Mediya" Toshkent 2019.-136 b.
3. Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. Darslik. –Toshkent: Fan, 2005. –B. 219-220.
4. Sirojiddinov SH., Odilova G. Badiiy tarjima asoslari. –Toshkent: Mumtoz so'z, 2011. –B. 80.
5. Некрасова Н. Сравнения общеязыкового типа в аспекте сопоставительного анализа художественных идиолектов // Лингвистика и поэтик. –М.: Наука, 1979. –С. 225;
6. Jabbarova, A. (2020). ФРАЗЕОЛОГИК БИРЛИКЛАР ШАКЛЛАНИШИНИНГ АНТРОПОПРАГМАТИК (ШАХС) ОМИЛЛАРИ. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1-6.
7. Bakhriddinova, D. (2017). Oqitishjarayonida "ruhiy kamolot vositasi" dansamaralifoydalanish. *XXIII Международной научной конференции "Актуальные вызовы современной науки"*, 26-27.
8. Baumatov, A., & Bakhriddinova, D. (2020). Билим даражалари турли хил бўлган кичик мактаб ёшдаги ўқувчиларга тил ўргатиш усуллари. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 2-2.

